

НОВОСТИ

ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИИ И РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ

**ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ**

№3-4.2020 (91-92)


ISSN 2091-5969

ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИЯ
ВА РЕПРОДУКТИВ САЛОМАТЛИК
ЯНГИЛИКЛАРИ

Марказий Осиё илмий-амалий журнали

THE NEWS
**OF DERMATOVENEROLOGY
AND REPRODUCTION HEALTH**

Central Asian Scientific and Practical Journal



МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
РЕСПУБЛИКАНСКИЙ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ЦЕНТР АКУШЕРСТВА И ГИНЕКОЛОГИИ
АССОЦИАЦИЯ ВРАЧЕЙ ЧАСТНОЙ ПРАКТИКИ УЗБЕКИСТАНА
КЛИНИКА «MAHLIYO-SHIFO» & Y

«Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья»
Рецензируемый научно-практический журнал
Публикуется 4 раза в год
Основан в 1997 году

«The news of dermatovenerology and reproduction health»
is a peer reviewed journal, is published 4 times a year

Журнал входит в перечень научных журналов и изданий, рекомендованных ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан при защите докторских диссертаций.

Журнал зарегистрирован Госкомитетом Республики Узбекистан по печати и информации
Лицензия №0527 от 13. 02. 2009 г.

А Д Р Е С Р Е Д А К Ц И И:

г. Ташкент, Шайхонтохурский район,
проезд Лабзак, 10 Клиника «Mahluyo-shifo»

Тел: (+99871) 244-06-33
(+99890) 978-38-78
(+99890) 353-14-45

E-mail: dermatol47@mail.ru
сайт: www.ndrz.uz

Зав. редакцией: Ф. Ф. Хашимов
Менеджер по распространению: Ж. М. Умаров
Компьютерный набор и верстка: М. Т. Ташпулатов

Подписной индекс — 1039
1042

За содержание рекламных материалов
ответственность несет рекламодатель

Подписано в печать 10.12.2020

Формат 60X84 1/8

Печать офсетная

Цена договорная

Тираж 1000 экз.

Заказ №45 от 22.12.2020 г.

ООО «ALPHA OMEGA Marketing»
Адрес: г. Ташкент, пр. Мустакиллик, 63
Тел.: 71 268-16-54; факс: 71 268-16-53
e-mail: print@alphaomega.uz

TOSHKENT TIBBIYOT
AKADEMIYASI KUTUBXONASI
№ _____

YUQA BERISH
MUMKIN EMAS

НОВОСТИ

ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИИ И
РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ

№3-4 (91-92)
2020 год

ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор — Ваисов А. Ш.
Зам. гл. редактора — Маннанов А. М.
Зам. гл. редактора — Курбанов Д. Д.
Отв. секретарь — Рахматов А. Б.

Абдуллаев М.И., Азизов Б.С., Арифов С.С.,
Артыков А.Ф., Атабеков Н.С., Аюпова Ф.М., Ваисов
И.А., Джаббарова Ю.К., Ибрагимов О.Д., Имамов
О.С., Исмаилова Г.А., Каримов А.Х., Каримова
Ф.Д., Магруппов Б.А., Мухамедов И.М.,
Нажмитдинова Д.К., Пахомова Ж.Е., Порсохонова
Д.Ф., Сабиров У.Ю., Садыков А.А., Султанов С.Н.,
Ташкенбаева У.А., Хайтов К.Н., Шодиев Х.К.

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Адаскевич В.П. (Беларусь, Витебск)
Алимов Б.Д. (Узбекистан, Ташкент)
Абдуллаев Т.А. (Узбекистан, Ташкент)
Абидов А.М. (Узбекистан, Ташкент)
Акилов Ф.А. (Узбекистан, Ташкент)
Батпенова Г.Р. (Казахстан, Астана)
Гюнеш А. (Турция)
Заславский Д.В. (Россия, Санкт-Петербург)
Зоиров П.Т. (Таджикистан, Душанбе)
Зуфарова Ш.А. (Узбекистан, Ташкент)
Исмаилова А.М. (Туркменистан, Ашгабад)
Каримова Д.Ф. (Узбекистан, Ташкент)
Кешилева З.Б. (Казахстан, Алматы)
Кумар Р. (Индия, Дели)
Литус О.И. (Украина, Киев)
Лукьянов А.М. (Беларусь, Витебск)
Мусабаев Э.И. (Узбекистан, Ташкент)
Набиев Т.А. (Узбекистан, Ташкент)
Олисова О.Ю. (Россия, Москва)
Рахимов И.Р. (Узбекистан, Ташкент)
Саипов С.С. (Узбекистан, Ташкент)
Эшбоев Э.Х. (Узбекистан, Ташкент)

ASOSIY O'QUV ZALI

К 100 ЛЕТИЮ ТМА

ВЫСШЕЕ МЕДИЦИНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ <i>А.Ш. Ваисов</i>	4
КАРДИОЛОГИЯ УЗБЕКИСТАНА: ИТОГИ И ПЕРСПЕКТИВЫ <i>Р.Д. Курбанов</i>	15
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА СТОМАТОЛОГИЯ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТИББИЁТ ИНСТИТУТИДА СТОМАТОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ ҲАМДА КАФЕДРАЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УЛАРИНИНГ ТАРИХИ <i>Р.Н. Нигматов</i>	20
РОЛЬ ВТОРОГО ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА В РАЗВИТИИ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Х.Я. Каримов</i>	27
ПРОФЕССОР. А.И.ЛЕБЕДЕВ (1887-1923) — ОСНОВОПОЛОЖНИК НАУЧНОЙ ДЕРМАТОЛОГИИ И ВЕНЕРОЛОГИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ <i>А.Ш. Ваисов, С.С. Арифов, Л.В. Белова</i>	28

ОРИГИНАЛЬНЫЕ СТАТЬИ

ГЕНЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ У БОЛЬНЫХ БУЛЛЕЗНЫМ ЭПИДЕРМОЛИЗОМ <i>А.Б. Рахматов, Ю.Ю. Котилевская, И.Т. Карабаева, М.К. Халдарбеков</i>	32
АНАЛИЗ РОЛИ ПОЛИМОРФНОГО ВАРИАНТА RS1800629 ГЕНА TNF-В МЕХАНИЗМЕ РАЗВИТИЯ СИНДРОМА ПОТЕРИ ПЛОДА <i>Н.Н. Мавлянова, К.Т. Бобоев</i>	34
ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПАТОГЕНЕТИЧЕСКОЙ ТЕРАПИИ ВИТИЛИГО <i>А.Ш. Ваисов, Мунир Ахмад</i>	38
ВПГ ИНФЕКЦИЯ, ЕГО РОЛЬ ПРИ БЕРЕМЕННОСТИ, ГЕРПЕТИЧЕСКИЙ ЭНЦЕФАЛИТ У НОВОРОЖДЕННЫХ ВЫЗВАННЫМ ВПГ <i>А.А. Абдулазизова, Р.С. Наврузова</i>	42
COVID-19 PANDEMIYASI DAVRIDA DERMATOLOGIK MUAMMOLAR <i>U.A. Tashkenbaeva, I.B. Nurmatova, F.F. Xashimov</i>	44
ВЛИЯНИЕ ВИТИЛИГО НА ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПАЦИЕНТОВ <i>А.Ш. Ваисов, Мунир Ахмад</i>	48
ВОПРОСЫ ЭТИОПАТОГЕНЕЗА И ТЕРАПИИ ВИТИЛИГО <i>Мунир Ахмад</i>	51
РОЛЬ ТРАНСФОРМИРУЮЩЕГО ФАКТОРА РОСТА - БЕТА-2 В ПАТОГЕНЕЗЕ АДЕНОМИОЗА И МИОМЫ МАТКИ <i>Н.Д. Муратова, Н.Ж. Сулеймонова, З.А. Ходжаева, Д.Д. Эшонходжаева</i>	56
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ АКУШЕРСКОЙ ПОМОЩИ ПРИ ТАЗОВОМ ПРЕДЛЕЖАНИИ ПЛОДА <i>М.Х. Каттаходжаева, З.М. Умаров, А.Т. Сафаров, Н.Ж. Сулеймонова, Л.С. Абдуллаева</i>	58
НАРУШЕНИЕ ФУНКЦИИ МЫШЦ ТАЗОВОГО ДНА У ЖЕНЩИН НЕСТРЕССОВОЕ НЕДЕРЖАНИЕ МОЧИ: МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ <i>Р.С. Наврузова, Х.М. Саатова</i>	60
СОСТОЯНИЕ ОКИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ И АНТИОКСИДАНТНОЙ ЗАЩИТЫ В КРОВИ БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКОЙ КРАПИВНИЦЕЙ <i>Н.Ж. Эрматов, У.А. Ташкенбаева, Т.К. Абдужаббаров</i>	64
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ НАРУШЕНИЙ РЕПРОДУКТИВНОЙ ФУНКЦИИ У ЖЕНЩИН ПЕРЕНЕСШИХ ПОСЛЕАБОРТНЫЙ ЭНДОМЕТРИТ <i>Л.М. Абдуллаева, А.Р. Нигматшаева, Д.Х. Мамажалилова</i>	66

ОБМЕН ОПЫТОМ

ПОЭТАПНОЙ КОНТРОЛЬ И ЛЕЧЕНИЯ КРОВОТЕЧЕНИЯ В АКУШЕРСКОЙ ПРАКТИКЕ <i>С.С. Гойибов, Р.Б. Юсупбаев</i>	72
---	----

TO THE 100TH ANNIVERSARY OF TMA

HIGHER MEDICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN DEVELOPMENT OF DERMATOVENEROLOGICAL SERVICE <i>A.Sh. Vaisov</i>	4
CARDIOLOGY OF UZBEKISTAN: RESULTS AND PROSPECTS <i>R.D. Kurbanov</i>	15
THE PLACE AND HISTORY OF THE FACULTY OF DENTISTRY AND DEPARTMENTS IN THE INSTITUTE OF MEDICINE IN THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF DENTISTRY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN <i>R.N. Nigmatov</i>	20
ROLE OF THE SECOND TASHKENT STATE MEDICAL INSTITUTE IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER MEDICAL EDUCATION AND SCIENCES IN UZBEKISTAN <i>Kh.Ya. Karimov</i>	27
PROFESSOR A.I. LEBEDEV (1887-1923) - FOUNDER OF SCIENTIFIC DERMATOLOGY AND VENEROLOGY IN CENTRAL ASIA <i>A.Sh. Vaisov, S.S. Arifov, L.V. Belova</i>	28

ORIGINAL ARTICLES

GENETIC ANALYSIS IN PATIENTS WITH EPIDERMOLYSIS BULLOSA <i>A.B. Rakhmatov, Yu.Yu. Kotilevskaya, I.T. Karabaeva, M.K. Khaldarbekov</i>	32
ANALYSIS OF THE ROLE OF THE RS1800629 POLYMORPHIC VARIANT OF THE TNF- GENE IN THE MECHANISM OF DEVELOPMENT OF FETAL LOSS SYNDROME <i>N.N. Mavlyanova, K.T. Boboyev</i>	34
ON THE EFFECTIVENESS OF PATHOGENETIC THERAPY FOR VITILIGO <i>A.Sh. Vaisov, Dr. Munir Ahmad</i>	38
HSV INFECTION, ITS ROLE IN PREGNANCY, HERPETIC ENCEPHALITIS IN NEWBORNS CAUSED BY HSV <i>A.A. Abdulazizova, R.S. Navruzova</i>	42
DERMATOLOGICAL PROBLEMS DURING THE COVID-19 PANDEMIC <i>U.A. Tashkenbaeva, I.B. Nurmatova, F.F. Khashimov</i>	44
THE INFLUENCE OF VITILIGO ON THE PSYCHO-EMOTIONAL STATE OF PATIENTS <i>A.Sh. Vaisov, Munir Ahmad</i>	48
QUESTIONS OF ETIOPATHOGENESIS AND VITILIGO THERAPY <i>Munir Ahmad</i>	51
THE ROLE OF THE TRANSFORMING GROWTH FACTOR - BETA-2 IN PATHOGENESIS OF ADENOMIOSIS AND UTERINE FIBROUS <i>N.D. Muratova, N.J. Sulaimonova, Z.A. Khodzhaeva, D.D. Eshonkhodzhaeva</i>	56
ON THE TACTICS OF MANAGEMENT OF DELIVERIES IN BREECH PRESENTATIONS <i>M.Kh. Kattakhodjayeva, Z.M. Umarov, A.T. Safarov, N.J. Suleymanova, L.S. Abdullayeva</i>	58
VIOLATION OF PELVIC FLOOR MUSCLE FUNCTION IN WOMEN NON-STRESS URINARY INCONTINENCE: METHODS OF DIAGNOSIS AND TREATMENT <i>R.S. Navruzova, X.M. Saatova</i>	60
THE STATE OF OXIDATIVE PROCESSES AND ANTIOXIDANT PROTECTION IN BLOOD OF PATIENTS WITH CHRONIC URTICARIA <i>N.Zh. Ermatov, U.A. Tashkenbayeva, T.K. Abdujabbarov</i>	64
FORECASTING REPRODUCTIVE FUNCTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH POST-BASED ENDOMETRITIS <i>L.M. Abdullayeva, A.R. Nigmatshayeva, D.X. Mamajalilova</i>	66

EXCHANGE OF EXPERIENCE

STEP-BY-STEP CONTROL AND TREATMENT OF BLEEDING IN OBSTETRIC PRACTICE <i>S.S. Goyibov, R.B. Yusupbaev</i>	72
---	----

СОСТОЯНИЕ МИНЕРАЛЬНОЙ ПЛОТНОСТИ КОСТИ У ЖЕНЩИН ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ХРОНИЧЕСКОЙ ГИПОЭСТРОГЕНИЕЙ З.И. Исмаилова, Д.Ш. Азизова, Г.Д. Азизова, Э.И. Азимова	75	CONDITION OF MINERAL BONE DENSITY IN WOMEN OF FERTILITY AGE WITH CHRONIC HYPOESTROGENIYA Z.I. Ismailova, D.SH. Azizova, G.D. Azizova, E.I. Azimova	75
ВРОЖДЕННЫЙ ИХТИОЗ А.Б. Рахматов, М.Т. Алишева	77	CONGENITAL ICHTHYOSIS A.B. Rakhmatov, M.T. Alisheva	77
ХАРАКТЕРИСТИКА МИКРОФЛОРЫ ВЛАГАЛИЩА У ЖЕНЩИН С МИОМОЙ МАТКИ М.Н. Негматуллаева, М.М. Рахматуллаева, Н.О. Нурханова, Ф.И. Саидова	82	CHARACTERISTICS OF THE VAGINAL MICROFLORA IN WOMEN WITH UTERINE FIBROIDS M.N. Negmatullayeva, M.M. Rakhmatullayeva, N.O. Nurhanova, F.I. Saidova	82
НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ РЕЛАНТАНА В ПРОФИЛАКТИКЕ И ЛЕЧЕНИИ НЕВЫНАШИВАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ Ф.М. Аюпова, У.Х. Солиева, Ф.Б. Миродилова	85	SOME ASPECTS OF THE USE OF RELANTAN IN THE PREVENTION AND TREATMENT OF MISCARRIAGE F.M. Ayupova, U.Kh. Solieva, F.B. Mirodilova	85
МИКРОБИОЛОГИЧЕСКАЯ АСПЕКТЫ ОЗОНОТЕРАПИИ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПАЦИЕНТОВ ЭРОЗИВНО-ЯЗВЕННОЙ ФОРМЫ КРАСНОГО ПЛОСКОГО ЛИШАЯ Х.П. Камиллов, Ш.И. Самадова, З.Х. Адилходжаева, М.Х. Ибрагимова	89	MICROBIOLOGICAL ASPECTS OF OZONOTHERAPY IN TREATMENT OF PATIENTS WITH EROSIVE-ULCER OF RED LICHEN PLANUS X.P. Kamilov, Sh.I. Samadova, Z.Kh. Adilxodjayeva, M.Kh. Ibragimova	89
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОЗОНОТЕРАПИИ ПАЦИЕНТОВ ЭРОЗИВНО-ЯЗВЕННОЙ ФОРМОЙ КРАСНОГО ПЛОСКОГО ЛИШАЯ Ш.И. Саматова, Х.Х. Адилходжаева, Х.П. Камиллов, М.Х. Ибрагимова	92	EFFICIENCY OF OZONOTHERAPY IN PATIENTS WITH EROSIVE-ULCER FOR RED LICHEN PLANUS Sh.I. Samatova, Kh. Kh. Adilxodjayeva, Kh.P. Kamilov, M. Kh. Ibragimova	92
НАШ ОПЫТ В ЛЕЧЕНИИ ОСТРОКОНЕЧНЫХ КОНДИЛОМ Ш.А. Юсупова	95	OUR EXPERIENCE IN THE TREATMENT OF GENITAL WARTS Sh.A. Yusupova	95
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПЕРИОДА ПЕРИМENOПАУЗЫ У ЖЕНЩИН С ЭНДОМЕТРИОЗОМ А.Т. Ахмедова	97	PECULIARITIES OF THE PERIMENOPAUSE PERIOD IN WOMEN WITH ENDOMETRIOSIS A.T. Akhmedova	97

ТЕЗИСЫ

ЦИТОКИНЫ И МИКОЗЫ СТОП Н.Д. Икрамова, Х.Р. Халидова, А.А. Тастанов	101	ПРИНЦИПЫ ПЕРСОНИФИЦИРОВАННОЙ ТЕРАПИИ ЗООНОЗНОЙ ТРИХОФИТИИ С УЧЕТОМ АКТИВНОСТИ ФЕРМЕНТОВ ЦИТОХРОМА P-450 ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВЗАИМОДЕЙСТВИЙ О.С. Имамов	108
ПСОРИАТИЧЕСКИЙ АРТРИТ И ОНИХОПАТИИ В ПОВСЕДНЕВНОЙ ПРАКТИКЕ ДЕРМАТОЛОГИЧЕСКОЙ КЛИНИКИ О.Д. Ибрагимов, М.Н. Солметова	102	СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ МИКРОБИОМА КОЖИ У СПОРТСМЕНОВ РАЗЛИЧНОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ В ПЕРИОДЫ ТРЕНИРОВОК А.А. Садилов, Г.Ш. Тохтаев	109
НАРУШЕНИЯ МОЧЕИСПУСКАНИЯ У ЖЕНЩИН В ПРЕМENOПАУЗАЛЬНОМ ПЕРИОДЕ С.А. Тилярова, Д.Р. Худоярова	102	КЛИНИЧЕСКАЯ КАРТИНА, ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА И ТЕРАПИЯ ПАЦИЕНТОВ С КРАСНЫМ ПЛОСКИМ ЛИШАЕМ У.А. Ташкенбаева, Х.Х. Сафаров, Г.Ш. Тохтаев	109
ПРОБЛЕМА СТИГМАТИЗАЦИИ ВИТИЛИГИНОЗНЫХ ПЯТЕН В СОВРЕМЕННОЙ ИНДИИ Мунир Ахмад	103	РЕАМБЕРИН В ЛЕЧЕНИИ КОМОРБИДНЫХ СОСТОЯНИЙ В ДЕРМАТОЛОГИИ И ФТИЗИАТРИИ А.Ш. Ваисов, И.Н. Парпиева, И.С. Саипова	110
РОЛЬ ОКСИДА АЗОТА У БОЛЬНЫХ МИКОЗОМ СТОП И.Р. Рахимов, З.М. Абидова, Н.Дж. Икрамова, М.Р. Махсудов, А.А. Тастанов	103	ЭНДОМЕТРИЙ ГИПЕРПЛАСТИК ЖАРАЁНЛАРИНИ ЭРТА ТАШХИСЛАШГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ УСУЛЛАРИ З.М. Назирова	110
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ ЭРОЗИВНО-ЯЗВЕННОЙ ФОРМЫ КРАСНОГО ПЛОСКОГО ЛИШАЯ ПО ДИНАМИКЕ МЕСТНЫХ ИМУННЫХ ФАКТОРОВ М.Х. Ибрагимов, Ш.И. Самадова, З.Х. Адилходжаева, Х.П. Камиллов	104	ПСОРИАТИЧЕСКИЙ АРТРИТ: ЛАБОРАТОРНАЯ И ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА Г.Ш. Тохтаев, Х.Х. Сафаров, К.З. Маликов, Н.Ф. Ниязбекова, Б.Р. Саидов	111
ФАВКУЛОДДА ВАЗИЯТНИНГ УЗОК МУДДАТЛИ ШАРОИТИДА МИГРАНТЛАР ОРАСИДА ОИВ ИНФЕКЦИЯСИ ЭПИДЕМИЯСИНИНГ ЎЗГАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ Н.Р. Кадилова	105	НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЭПИДЕМИОЛОГИИ БАЗАЛЬНОКЛЕТОЧНОГО РАКА КОЖИ. АНАЛИЗ МАТЕРИАЛА КАНЦЕР-РЕГИСТРА Г.ТАШКЕНТА ЗА 2015-2019 ГГ. М.Н. Солметова, М.А. Гафур-Ахунов, А.Ш. Ваисов	112
ОЦЕНКА БИОЦЕНОЗА ВЛАГАЛИЩА У БЕРЕМЕННЫХ С ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫМ ИЗЛИТИЕМ ОКОЛОПЛОДНЫХ ВОД Ф.М. Аюпова, С.С. Исмаилова, У.М. Юсупова	106	ОПТИМИЗАЦИЯ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ ИНФИЛЬТРАТИВНО-НАГНОИТЕЛЬНОЙ ТРИХОФИТИИ НА ФОНЕ ГИПОВИТАМИНОЗА Д О.С. Имамов, И.Н. Абдувахитова	113
ЭНДОМЕТРИЙ ПРОЛИФЕРАТИВ ЖАРАЁНЛАРИНИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИ З.М. Назирова	106	НЕМЕДИКАМЕНТОЗНЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ НАРУШЕНИЯ МОЧЕИСПУСКАНИЯ У ЖЕНЩИН В ПРЕМENOПАУЗАЛЬНОМ ПЕРИОДЕ С.А. Тилярова, Д.Р. Худоярова	113
НАРУШЕНИЯ МЕНСТРУАЛЬНОГО ЦИКЛА У ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ Н.М. Ахмедова	107	FEATURES OF NEVUSES IN THE JAW OF THE FACE AND PROBLEMS WITH THEIR TREATMENT K. G. Ismoilxo'djayeva	113
		НЕКРОЛОГ	
		НАДЖИЮЛЛА ХАБИБУЛЛАЕВИЧ ШАМИРЗАЕВ	115

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акушерство и гинекология. Клинические рекомендации. Под ред. Г.М. Савельевой, В.Н. Серова, Г.Т. Сухих. ГЭОТАР-Медиа 2019.
2. Башмакова Н.В., Моторнюк Ю.И., Зильбер Н.А. Проблемы диагностики и терапии генитального герпеса при беременности (предварительное сообщение). Российский вестник акушера-гинеколога. 2007.
3. ВОЗ. Информационный бюллетень. 2013, 110. /WHO. Fact sheet. 2013.
4. 2017 European guidelines for the management of genital herpes Rajul Patel, Oliver J Kennedy, Emily Clarke August 24, 2017.
5. Женское здоровье. Руководство для врачей первичного звена. Т.Ю.Пестрикова, Е.А.Юрасова, И.В.Юрасов, А.В. Котельникова под ред. А. Коннолли, А. Бриттон ; пер. с англ. под общ. ред. В. Н. Прилепской Москва : Медпресс-информ, 2018. - 504 стр.
6. Клинические рекомендации (протокол лечения) оказания медицинской помощи детям больным инфекцией, вызванной вирусом простого герпеса. Левина Анастасия Сергеевна, Бабаченко Ирина Владимировна. ФГБУ НИИ-ДИ ФМБА России 2015г Стр 12.
7. Руководство по амбулаторно-поликлинической помощи в акушерстве и гинекологии. С. В. Павлович, Н. М. Назарова. Медицинский совет о №13, 2018.

COVID-19 PANDEMIYASI DAVRIDA DERMATOLOGIK MUAMMOLAR

U.A.Tashkenbaeva, I.B.Nurmatova, F.F.Xashimov
Toshkent Tibbiyot akademiyasi, Dermatovenerologiya kafedrasida

COVID-19 pandemiyasining yuzaga kelishi tibbiyot birlashmalari oldiga yechish mushkul bo'lgan bir qator yangi vazifalarni qo'ydi. Dermatologiya amaliyotida nafaqat yangi koronavirus infeksiyasining terida namoyon bo'lish belgilarini qayd etish va aniqlash, tavsiflash va to'xtatish, balki shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tufayli kasbiy dermatitga duchor bo'lgan hamkasblarimizga tibbiy yordam ko'rsatish zaruriyati ham tug'ildi. Bundan tashqari, epidemiologik cheklovlarni inobatga olgan holda, o'tkir va surunkali dermatozli bemorlarga yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash kerak.

Tayanch so'zlar: dermatologiya, COVID-19, pandemiya.

Дерматологические проблемы в период пандемии COVID-19

У.А.Ташкенбаева, И.Б.Нурматова, Ф.Ф.Хашимов

Возникновение пандемии COVID-19 поставило целый ряд новых, трудно разрешимых задач перед медицинским сообществом. В дерматологической практике приходится не только выявлять, описывать и купировать кожные проявления новой коронавирусной инфекции, но и оказывать медицинскую помощь коллегам, подверженным профессиональному дерматиту в связи с использованием средств индивидуальной защиты. Кроме этого, необходимо обеспечивать качественное оказание медицинской помощи больным с острыми и хроническими дерматозами с учетом налагаемых настоящей эпидемией ограничений.

Ключевые слова: дерматология, COVID-19, пандемия.

Dermatological problems during the COVID-19 pandemic

U.A. Tashkenbaeva, I.B. Nurmatova, F.F. Khashimov

COVID-19 pandemic posed a number of new formidable challenges to medical community. Dermatologists have not only to detect, define and reverse the new coronavirus infection cutaneous manifestations, but also to provide medical assistance to colleagues with occupational dermatitis due to personal protective equipment use. Moreover, it is necessary to provide quality medical care to patients with acute and chronic dermatosis given the limitations of present pandemic situation.

Key words: dermatology, COVID-19, pandemic.

2019 yilning dekabrda Markaziy Xitoyda — Xubey provinsiyasida yangi turdagi koronavirus infeksiyasining yashin tezligida tarqalishi bilan koronavirus kasalligi (COVID-19) deb nomlangan yangi pandemiya boshlandi. COVID-19 Nidovirales turiga mansub bo'lgan Coronaviridae viruslari oilasi tufayli yuzaga keladi hamda o'tkir respirator sindromi bilan birgalikda kechadi.

Koronaviruslar qobig'i diametri 80-220 nm bo'lgan shar (sfera) ko'rinishida bo'lib, murakkab turdagi viruslarga mansub. Ular tashqi tomondan lipid qobig'i — superkapsid bilan o'ralgan bo'lib, ular ustida oqsilli tikansifat o'simtalar mavjud. Koronaviruslar genomi segmentlashmagan bir hujayrali ijobiy RHK dvn iborat. Bugungi kunda insonlarda kasallik qo'zg'atuvchi 6 turdagi koronaviruslar aniqlangan bo'lib, ular asosan havotomchi va og'iz bo'shlig'i orqali yuqadi [1].

Shilliq pardalar COVID-19 dan zararlanishning asosiy nuqtalari sanaladi. Biroq koronavirus infeksiyasining terida o'ziga xos namoyon bo'lishi

holatlari shu kungacha qayd qilib o'tilmagan. Shunga qaramay, dermatologlar oldida COVID-19 epidemiyasi bilan bog'liq bir qator masalalar yuzaga keldi. Birinchidan, yangi koronavirus infeksiyasining terida namoyon bo'luvchi ehtimoliy belgilarini aniqlash va qayd etish, shuningdek, mazkur simptomlarning terida toshmalar paydo bo'lish va isitma bilan birgalikda kechadigan boshqa kasalliklardan farqli tabaqalashgan diagnostik omillarini aniqlash zarur. COVID-19 kasalligi borasida o'ziga xos dermatologik belgilar namoyon bo'lish holatlarining qayd etilmaganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu juda murakkab masala sanalishi ayon bo'ladi.

Bundan tashqari, butun dunyodagi pandemik holat tufayli sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar va klinikalarning qayta moslashtirilishi bilan bog'liq holda bemorlarga dermatologiya sohasida malakali tibbiy yordam ko'rsatishda ayrim cheklovlar ham yuzaga keldi. Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirgi pandemiya sharoitida dermatolog shifokorlar

bemorlarni ko'rish chog'ida teri va shilliq qavatlar bilan tig'iz kontaktga kirishishlari bilan bog'liq holda COVID-19 ga chalinish borasida yuqori xavf guruhiga mansub bo'lib qolishdi, bu esa mazkur soha mutaxassislari uchun ish faoliyatida qator cheklovlarga sabab bo'ldi. Immunosupressiv preparatlar qabul qiluvchi surunkali dermatoz xastaligiga chalingan bemorlar ham COVID-19 infeksiyasi bilan zararlanishning yuqori xavf guruhiga mansub bo'lib qolishdi.

Bugungi kunning yana bir dolzarb muammosi allergik kontaktli dermatit bilan kasallanganlar sonining ortishi, shuningdek, aholi tomonidan antiseptik vositalarni qo'llash, qo'lni tez-tez sovunlab yuvish, niqob va qo'lqop kiyish zaruriyati bilan bog'liq holda boshqa teri kasalliklarining boshlanishi yoxud kuchayishi sanaladi. Ta'kidlash joizki, allergik dermatit bilan kasallanish holatining ortishi nafaqat tibbiy soha xodimlari o'rtasida, balki aholi orasida ham kuzatilmoqda, bunga sabab esa bugun yuzaga kelgan epidemiologik vaziyat shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishni hatto odatiy turmush tarziga ham joriy qilishni taqozo etmoqda.

Shunday qilib, COVID-19 pandemiyasi nafaqat mazkur kasallikka chalingan bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash, balki tibbiyot xodimlari ishini tashkil etish borasida ham bir qator muammoli masalalarni hal etishni ham tibbiyot birlashmalari oldiga dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda. Ulardan ayrimlarini — dermatologiyaga taalluqlilarini mazkur maqolada ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

COVID-19 ning terida namoyon bo'luvchi simptomlari

Bugungi kunda COVID-19 ning terida va shilliq qavatlarda namoyon bo'lgan o'ziga xos belgilari qayd etilgani yo'q. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur yangi virusli kasallik 20 foiz holatda eritematoz toshmalar, nuqtali qon quyilishlar, eshakemi va terida vezikullar paydo bo'lishi bilan birgalikda kechishi mumkin. Bundan tashqari, eritrodermiya rivojlanishi, tugunli eritema, ko'p shaklli ekssudativ eritema hamda teri qichishishi ham uchrashi qayd qilingan bo'lib, bular juda kam holatlarda kuzatilgan [2].

Masalan, Italiyada klinik kuzatuvlar natijasida COVID-19 kasalligi bilan intensiv terapiya bo'limida davolanayotgan 88 nafar bemordan 18 nafarida teri simptomlari kuzatilgani borasida xabar berilgan. Jumladan, eritematoz toshmalar (n=14), keng tarqalgan eshakemi (n=3) va suvchechakka o'xshash pufakchalar (n=1) kuzatilgan [2]. Biroq mazkur klinik kuzatuvlarda gistologik tekshiruvlar o'tkazish imkoni bo'lmagan va tashxis faqat klinik ko'rinishlarga asoslanib qo'yilgan.

Intensiv terapiya bo'limida davolanayotgan COVID-19 ga chalingan bemorlar orasida qonning qon tomirlar ichida disseminirlangan quyulishi sindromi juda ko'p holatda kuzatilgan bo'lib, bu akral

ishemiya va quruq qorasonning rivojlanishiga olib kelgan. Past molekulyar geparin bilan davolash qator holatlarda kutilgan samarani bermagan. Ayni vaqtda qonning qon tomirlar ichida disseminirlangan quyulishi sindromi COVID-19 bilan kasallangan bemorlar orasida o'limga olib keluvchi yuqori xavf omili sifatida baholanadi, chunki 7 nafar bemordan 5 nafarida sindrom rivojlanishidan keyingi 12 sutka mobaynida o'lim holati kuzatilgan [3]. Shunga ko'ra, terining ba'zi yerlarida ishemiya paydo bo'lishi, shuningdek, keng ko'lamdagi qon quyilishi noxush prognostik belgi sifatida ko'rilishi mumkin.

COVID-19 ga chalingan bemorlar terisiga toshmalar toshishi sabablaridan yana biri dorilar — virusga qarshi va bakteriyaga qarshi vositalar ham bo'lishi mumkin. Bu holatda terida kuzatilgan o'zgarishlar dori vositasiga nisbatan allergiyaning natijasi o'laroq yuzaga keladi. Ammo ayni kunda pandemik vaziyatda bevosita COVID-19 bois yuzaga kelgan dermatozlar va dori vositalariga nisbatan qo'zg'algan allergiyaning tabaqalashtirilgan diagnostikasini amalga oshirish nafaqat juda qiyin, balki amaliy jihatdan imkonsiz hamdir.

Y. Zhang va hammualliflar o'zlari taqdiqot o'tkazgan 140 nafar bemorda COVID-19 ning klinik belgilarini qayd etishgan. Bemorlarning 75,4 foizida limfopeniya, 52,9 foizida eozinopeniya kuzatilgan. Shu bilan birga, ushbu bemorlarning 11,4 foizi muayyan bir dori-darmonlarga yuqori sezuvchanlik ko'rsatgan va atigi 1,4 foizida kasallikning eng keng tarqalgan teri belgisi sanalgan eshakemi kuzatilgan [4].

COVID-19 vaksinasi ishlab chiqilishi va tibbiy amaliyotga kiritilishi orqali biz kelgusida yuborilgan vaksina yuzaga keltiruvchi allergik reaksiyalar natijasida eshakemi, sklerodermiya va makulopapulyar toshmalar kabi teri toshmalariga duch kelishimiz mumkin [2].

COVID-19 ga chalingan ayrim bemorlarda atopik dermatit, psoriasis, rozatsea kabi ilgari mavjud bo'lgan teri kasalliklarining kuchayishi qayd etilgan. Buning sababi yuqumli kasallikka chalinish qarshisidagi qo'rquv tufayli kelib chiqqan psixoemotsional stress, shuningdek davolanish bo'lishi mumkin [5].

COVID-19 pandemiyasi fonida paydo bo'lgan psixo-emotsional stress, virusni yuqtirmagan, ammo dunyodagi vaziyatdan haddan tashqari xavotirga tushgan bemorlarda ham bir qator surunkali teri kasalliklarining kuchayishiga sababchi bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas, deb taxmin qilish mumkin.

COVID-19 bilan bevosita bog'liq teri toshmalaridan tashqari, biz tibbiy xodimlarda va izolyasiyada o'tirish imkoniga ega bo'lmagan, tabiiyki, shu bois shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishga majbur bo'lgan boshqa shaxslarda ham shu kabi vositalarning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan teri muammolarini kuzatishimiz mumkin. Tibbiy niqoblardan uzoq muddat foydalanish oddiy husnbuzar, rozatsea, allergik dermatit va hatto teri eroziyasi paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tibbiy qo'lqoplar

barmoq terisining matseratsiyasi, gipergidroz va kontaktli dermatitni keltirib chiqarishi mumkin. Qo'lni tez-tez sovunlab yuvish va antiseptiklardan foydalanish allergik va kontakt dermatitning yuzaga kelishiga sababchi bo'lish ehtimoli bor.

Tashqi profilaktikaning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunga kelib, koronavirus taxminan 9 kun davomida metall yoki shisha kabi silliq yuzalarda saqlanishi mumkinligi bizga ma'lum. Sirtlarni 62-71 foizli etanol, 0,1 foizli natriygi poxlorit yoki 0,5 foizli vodorod peroksid yordamida zararsizlantirish virus zarralarini 1 daqiqa ichida bartaraf qilishi mumkin [6]. Bugungi kunda koronavirus infeksiyasini davolashning samaradorligi isbotlangan usullari mavjud emasligini hisobga olgan holda, epidemiya tarqalishining oldini olishning yagona ishonchli usuli sifatida qo'llarni spirtli antiseptiklar bilan muntazam va yaxshilab tozalash yoki kamida 20 soniya davomida sovun va suv bilan yuvish va orqaliq masofani saqlash sanaladi. Shu bilan birga, koronavirus infeksiyasiga chalinishning oldini olish uchun ba'zi antiseptik vositalarning samaradorligi to'g'risida ham bir qarorga kelishga erishilmagan. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar qo'llash davomiyligi kamida 30 soniyani tashkil etuvchi propanololga nisbatan etanolni COVID-19 ga qarshi samaraliroq deb hisoblashadi. Spirtli dezinfeksiyalovchi vositalarga mikroblarga qarshi boshqa vositalarning qo'shilishi shu vositalar samaradorligini oshirmaydi, ammo qichishish xususiyatini beruvchi kontakt dermatit rivojlanish xavfini orttirishi mumkin. Shuningdek, aksariyat tadqiqotchilar spirtli dezinfeksiyalovchi vositalar qo'llarni sovun bilan yuvishdan ko'ra ko'proq epidermal to'siqni saqlaydi, deb hisoblashadi [6].

Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchilar qo'llarni sovun bilan yuvish koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olishda eng samarali usul deya sanaydilar. Buni ular sovun kapsidning yog'li membranasi eritishi va shu orqali virus faolligini yo'qotishi bilan izohlashadi [7].

COVID-19 ga chalingan bemorlar bilan bevosita aloqada bo'layotgan shifokorlar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, ayniqsa ishonchli himoyaga muhtoj. Dezinfeksiyalovchi vositalardan foydalanish, ijtimoiy masofani saqlash va shaxsiy himoya vositalari — niqob, ko'zoynaklar va qo'lqoplardan foydalanish COVID-19 yuqtirish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Ammo dermatologik amaliyotda kamdan-kam hollarda bemorga 20-30 santimetr masofaga yaqinlashmasdan kasallikni aniqlash mumkin. Dermatioskopiya o'tkazishda bu masofa yanada qisqaradi va shunga muvofiq kasallik yuqtirish xavfi yanada oshadi. Aks holda — agar masofa saqlash qoidalari to'liq rioya qilinsa, dermatologik kasalliklarning sifatli tashxisiga to'sqinlik qiladigan sharoitlar yuzaga keladi. Bu hozirgi pandemiya sharoitida dermatologlar duch kelayotgan yana bir muammo sanaladi.

Tibbiy xodimlarda terining kasbiy kasalliklari

COVID-19 ga chalingan bemorlar bilan ishlaydigan va shaxsiy himoya vositalarini kiyishga majbur bo'lgan tibbiyot xodimlarida yuqorida qayd etilgan dermatologik kasalliklarning paydo bo'lishiga kelsak, bunday teri patologiyasi xitoylik shifokorlarning 2/3 qismida aniqlangan [8].

Xitoyning Xubey shahrida COVID-19 ga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatayotgan 542 nafar shifokor va hamshiralar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari kasbiy teri kasalliklari qay darajada bo'lganligini ko'rsatdi. Shunday patologiya tibbiy xodimlarning 97 foizida uchradi. Teridagi toshmalar aksariyat holatlarda qanshar sohasida aniqlandi (83,1 foiz). Biroq yuz, peshona va qo'llar terilari ham shikastga uchragan holatlar mavjud. Shaxsiy himoya vositalaridan 6 soat va undan ko'p vaqt davomida foydalanishda kasbiy dermatozlarning yuzaga kelish xavfi ortgani aniqlandi. Qo'lni tez-tez tozalash (kuniga 10 martadan ziyod) va uzoq vaqt qo'lqop kiyib yurish kasbiy allergik dermatit rivojlanish xavfi koeffitsientini 2,17 barobargacha oshirishga olib keldi [9].

Xitoyning Uxan shahrida o'tkazilgan va 376 nafar tibbiyot xodimi ishtirok etgan boshqa bir tadqiqotda teri bilan bog'liq muammolar ularning 74,5 foizida kuzatilgan. Shu bilan birga, 84,5 foiz holatda qo'llarning terisida toshmalar aniqlandi va yonoq hamda qanshar sohaslarida ham terining tez-tez ta'sirlanishi kuzatildi. Klinik jihatdan kasbiy dermatit asosan terining kserozisi, ekzematoz toshmalar va makeratsiya bilan namoyon bo'ldi. Biroq, shunga qaramay, so'rovda ishtirok etgan tibbiy xizmat xodimlarining atigi 22,1 foizi namlantiruvchi vositalardan muntazam foydalangan [10].

Teri yallig'lanish kasalliklarining tibbiy preparatlar yordamida tizimli davolash

Ayni vaqtda dermatologlar oldida turgan yana bir muammoli masala surunkali yallig'lanishli dermatozlarga chalingan bemorlarni tibbiy preparatlar yordamida tizimli davolashdir. Masalan, o'rta va og'ir darajadagi psoriasis kasalligini davolash uchun immunosupressiv ta'sir ko'rsatuvchi metotreksat, siklosporin A, fumarik kislota efirlari, shuningdek, biologik moddalar qo'llaniladi. Psoriatik artrit, o'rta va og'ir darajadagi yiringli gidradenit yoki atopik dermatitga chalingan bemorlarga tizimli kortikosteroidlar va immunosupressorlar ham tavsiya etiladi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida bunday bemorlar kasallikka chalinishning yuqori xavf guruhiga mansub bo'lishadi. Ular davolashni to'xtatishlari kerakmi, axir dermatologiya sohasida tizimli davolash bemorning hayotiga bevosita xavf bo'lgan vaqtda emas, kasallikning og'ir kechishida belgilanadi-ku?

Mazkur masala bo'yicha ma'lumotlar juda kam, ammo, chamasi, dori vositalari yordamida tizimli muolaja olayotgan va COVID-19 ning klinik belgilariga ega bo'lmagan bemorlar boshlangan

davo choralarini davom ettirishlari va o'zlarining asosiy kasalliklari yuzaga keltiruvchi jiddiy oqibatlar xavfi ostida qolmasliklari kerak, degan qarash shakllangan. Masalan, Avstraliya/Yangi Zelandiya tomonidan berilgan konsensusda shunday qayd qilinadi: «Ayni vaqtda tizimli immunomodulyatorlar olayotgan dematologik kasalliklari mavjud bemorlar COVID-19 infeksiyasiga chalinishning yuqori xavf guruhiga yoki teri kasalliklarining og'ir kechishiga mansub ekanligini tasdiqlovchi aniq ma'lumotlar yetarli emas...» [11].

Shunga qaramay, COVID-19 ning og'ir kechishida tizimli kortikosteroidlarni ayniqsa kuniga 20 mg dan ortiq dozada qabul qilish tavsiya etilmaydi, chunki bu kabi dori vositalarining immunosuppressiv faolligi koronavirus infeksiyasining yanada og'ir va uzoq muddat kechishiga asos bo'ladi [12].

Biologik preparatlar borasida so'z ketganda, nazariy jihatdan COVID-19 rivojlanish xavfi interleykinlar ingibitorlarini qo'llashdan ko'ra (FNO) α shish nekrozi omili ingibitorlarini qo'llash fonida ortishi mumkin. Bunda FNO- α ingibitorlari orasida infliksimab bilan davolashda COVID-19 ga chalinish xavfi ehtimoli yanada oshadi [13]. Ustekinumab, risankizumab, iksekizumab va brodalumab kabi boshqa biologik preparatlarni qo'llash borasida to'plangan ma'lumotlar mazkur dori vosiatalari yuqori nafas yo'llari infeksiyasi rivojlanish xavfini yuzaga keltirmasligidan dalolat beradi. Biroq ularni qo'llash fonida COVID-19 ga chalinish borasida ma'lumotlar keltirilmagan. Shu bilan bir vaqtda, infliksimab,

adalimumab, ustekinumab bilan davolash fonida o'pkalarning interstitsial kasalliklari rivojlanish holatlari qayd qilingan [14]. Shu bois surunkali dermatozlarni biologik preparatlar bilan davolashni boshlash imkon qadar keyinroqqa surilgani maqsadga muvofiq. Bu dori vosiatalari bilan boshlangan davolash choralarini hozirgi epidemiya sharoitida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan davom ettirish, FNO- α ingibitorlarini qo'llashdan esa, yaxshisi, tiyilish ma'qul.

Xulosa

Shunday qilib, COVID-19 pandemiyasi davrida ixtisoslashtirilgan dermatologik tibbiy yordamni yangi sharoitda va yangi, avval ma'lum bo'lmagan bir qator omillar mavjud bo'lgan bir sharoitda davom ettirish zaruriyati yuzaga keldi. Dermatologik xastaliklari bo'lgan bemorlarga tegishli yordam ko'rsatishdan tashqari mazkur yuzaga kelgan sharoitda tibbiyot xodimlari uchun dermatologik maslahatlar ham berish darkor (nafaqat COVID-19 ning salbiy oqibatlarini to'xtatish va infeksiyasidan himoyalanih borasida, balki ularning oldini olish choralari bo'yicha ham). Pandemiya sharoitida dermatologlar ko'p narsalarga tayyor turishlari kerak, chunki ular tibbiyot xodimlariga profilaktika maslahatida, shuningdek, isitma bilan birgalikda kechadigan toshmalarning tabaqalashtirilgan diagnostikasida muhim rol o'ynaydi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida dermatologik yordam ko'rsatish muammosini hal qilish usullaridan biri teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lu R, Zhao X, Li J et al. Genomic characterisation and epidemiology of 2019 novel coronavirus: implications for virus origins and receptor binding. *Lancet* 2020; 395 (10224): 565-74.
2. Recalcati S. Cutaneous manifestations in COVID-19: a first perspective. *J Eur Acad Dermatol Venereol* 2020. DOI: 10.1111/jdv.16387
3. Zhang Y, Cao W, Xiao M et al. Clinical and coagulation characteristics of 7 patients with critical COVID-2019 pneumonia and acroischemia. *Zhonghua Xue Ye Xue Za Zhi* 2020; 41: E006.
4. Zhang JJ, Dong X, Cao YY et al. Clinical characteristics of 140 patients infected with SARS-CoV-2 in Wuhan, China. *Allergy* 2020. DOI: 10.1111/all.14238
5. Zheng Y, Lai W. Dermatology staff participate in fight against Covid-19 in China. *J Eur Acad Dermatol Venereol* 2020. DOI: 10.1111/jdv.16390
6. Kampf G, Todt D, Pfaender S, Steinmann E. Persistence of coronaviruses on inanimate surfaces and their inactivation with biocidal agents. *J Hosp Infect* 2020;104 (3): 246-51.
7. Jin Y-H, Lin C, Cheng Z-S et al. A rapid advice guideline for the diagnosis and treatment of 2019 novel coronavirus (2019-nCoV) infected pneumonia (standard version). *Mil Med Res* 2020; 7: 4.
8. Yan Y, Chen H, Chen L et al. Consensus of Chinese experts on protection of skin and mucous membrane barrier for healthcare workers fighting against coronavirus disease 2019. *Dermatol Ther* 2020; e13310. DOI: 10.1111/dth.13310
9. Lan J, Song Z, Miao X et al. Skin damage among healthcare workers managing coronavirus disease-2019. *J Am Acad Dermatol* 2020; PII: S0190-9622 (20): 30392-3. DOI: 10.1016/j.jaad.2020.03.014
10. Lin P, Zhu S, Huang Y et al. Adverse skin reactions among healthcare workers during the coronavirus disease 2019 outbreak: a survey in Wuhan and its surrounding regions. *Br J Dermatol* 2020. DOI: 10.1111/bjd.19089
11. Wang C, Rademaker M, Baker C, Foley P. COVID-19 and the use of immunomodulatory and biologic agents for severe cutaneous disease: An Australia/New Zealand consensus statement. *Australas J Dermatol* 2020. DOI: 10.1111/ajd.13313
12. Russell CD, Millar JE, Baillie JK. Clinical evidence does not support corticosteroid treatment for 2019-nCoV lung injury. *Lancet* 2020; 395 (10223): 473-5.
13. Baysham AM, Feldman SR. Should patients stop their biologic treatment during the COVID-19 pandemic. *J Dermatol Treat* 2020; 1-2. DOI: 10.1080/09546634.2020.1742438
14. Camus P. The drug-induced respiratory disease website, Pneumotox Online V2.2. <http://www.pneumotox.com>. Assessed April 7, 2020.